

MUMTOZ SHE'RIYATNING G'AZAL JANRI

Go'zalxon Xaydarova

O'zbekiston jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti

Abdurahmonova Durdona Ulug'bek Qizi

O'zbekiston jahon tillari universiteti xorijiy til va adabiyoti fakulteti

G'azal atamasi dastavval VI-VII asrlarda arab she'riyatida paydo bo'lgan bo'lib, u „oshiqona so'z“, „xotin - qizlar bilan yoqimli muomalada bo'lish“ degan ma'noni bildiradi. Bu she'riy san'at keyinchalik fors adabiyotiga, XIV asrda esa turkiy adabiyotga kirib kelgan. G'azalning turkiy tildagi dastlabki namunalari Xorazmiy va Rabg'uziyning ijodida ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida, „Qisasi Rabg'uziy“ni keltirishimiz mumkin. Bu asarda ilk turkiy tilda yozilgan g'azallar mavjud.

G'azallar adabiy atama sifatida turli mavzularda yozilishi mumkin. Ya'ni, oshiqona, orifona, rindona (may ta'rifi tasvirlanadi), hajviy, yumoristik, ta'limiy, axloqiy, publitsistik, ijtimoiy- ma'rifiy hamda tabiat tasviriga bag'ishlangan g'azallarni keltirish mumkin. Tuzilishi jihatidan a-a, b-a, d-a, e-a,... tarzida qofiyalanadi. Hajmiy jihatdan esa ilmiy adabiyotlarda 3 baytdan 19 baytgacha yozilsa, o'zbek adabiyotida esa 5 baytdan 21 baytgacha yozilishi mumkin.

G'azalning birinchi ikki misrasi matla', oxirgi bayti esa maqta' deb atalib, o'zaro qofiyaga ega bo'lgan misralardan iborat bo'ladi. Ba'zi g'azallarda birinchi va ikkinchi baytlar o'zaro qofiyalanib (a-a, a-a) kelishi mumkin, o'sha hollarda bu g'azal husni matla' yoki zebi matla' deb ataladi. Agar g'azalning barcha baytlari o'zaro qofiyadosh bo'lsa (a-a, a-a, a-a, a-a,...), u g'azali zebi qofiya deb ataladi. G'azali musajja' esa g'azalda ichki qofiya bo'lsagina vujudga keladi.

G'azalga misol:

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o'lturur, -a
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'lur. -a
To magarkim, Salsabil obina javlone qila, -b
Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur. -a
Ul ilikkim suvdin orig'tur, yumas oni suda, -d
Balki suvni pok bo'lsun deb ilik birla yuyur. -a
Emdi bildim rost ermesh, balki ko'rdim ko'z bila, -e
Ulki derlar, suv qizi goh-goh ko'zga korinur. -a
Qoshlaring yosin Atoiy ko'rgali husn ichra toq, -f
Subhidam mehroblarda surayi Yosin o'qur. -a

Bu g'azalning dastlabki ikki bayti qofiyalangani uchun husni matla', to'rtinchi bayt esa begona bayt, oxirgi bayt maqta' bo'lib unda shoirning taxallusi keltirilgan. Ya'ni bu she'r Atoiy ijodiga tegishli g'azal.

G'azallarda asosan ikkita asosiy markaziy tasvir bor: bir- lirik qahramonning tasviri, ikkinchisi- ma'shuqa tasviri. Demoqchimizki, g'azallarda ma'shuqa, oshiq va raqib obrazlar muhim rolni o'ynaydi.

Ma'shuqa- oshiq ko'nglini o'ziga rom etgan go'zal yor, uning go'zalligi chiroyli tashbehtar bilan ifodalanadi. Oshiq- ishqqa muhtalo bo'lgan va o'zini unutgan kishi. Raqib esa ma'shuqaning vasliga da'vogar bo'lgan boshqa shaxs. Ammo tasavvuf adabiyotida bu obrazlar yangicha ma'nolarni kasb etadi: ma'shuqa ya'ni yor –Alloh, pir yoxud do'st ma'nosida ; oshiq- Allohga yaqinlashishga harakat qilayotgan so'fiy banda; raqib esa insondagi nafs yoki dunyoni ifodalaydi. Bular, albatta, tasavvufiy g'azallarda uchraydi. Quyida o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin adibi bo'lgan Alisher Navoiy bobomizning qalamiga mansub g'azal namunasi bilan tanishing:

Tun oqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim,
Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.
Ne g'am, ko'rguzsa ko'ksun porasin choki giribonim,
Ko'rinmas bo'lsa ko'ksun yorasindin dog'l pinhonim.

Ushbu g'azalda Navoiy bobomiz zamonidagi eng yorqin va boy tuyg'ular ifodasini ko'rishimiz mumkin. Chunki bu g'azal o'zining ajoyib taassurot, shoiriyat, hamda shoirning o'z xayollarini, xayollaridagi dunyoni aks ettirishga uringan she'r hisoblanadi. Shoir o'z sevgi va g'ayratini ifodalaydi, shuning bilan birga, kitobxonga uning qobilyatini va insonning yuksak tuyg'ularini his qilishga intiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek adabiyoti ko'plab g'azal namunalariga boy, hamda har bir ijodkorning mumtoz she'riyatda tutgan o'rni, maqomi, dovrug'i ana o'sha g'azallari orqali belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Qosimov va boshqa. Adabiyot (10-sinf darslik), -Toshkent, 2004
2. <https://adiblar.gitbook>.
3. Q.Yo'ldoshev va boshqa, Adabiyot (7-sinf darslik), T. 2005
4. Nosirov O. O'zbek adabiyoti nashriyoti, T. 1972
5. S.Olimov va boshqa, Adabiyot (8-sinf darslik), T. „O'zbekiston“ nashriyoti, 2010
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild, T. Davlat ilmiy nashriyoti, 2008